

Husanov Abbos Mahmudovich,

Qarshi davlat universiteti "Psigologiya" kafedrası
o'qituvchisi, Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

KIBERHUJUMLARDAN SAQLANISH VA SHAXSNING O'Z-O'ZIGA MUNOSABATINI EMPIRIK O'RGANISH NATIJALARI

UO'K: 152.27(045)

DOI: 10.34920/SO/VOL_2023_ISSUE_1_4

HUSANOV A.M. KIBERHUJUMLARDAN SAQLANISH VA SHAXSNING O'Z-O'ZIGA MUNOSABATINI EMPIRIK O'RGANISH NATIJALARI

Maqolada kiberhujumlardan saqlanish va shaxsning o'z-o'ziga munosabatini empirik o'rganish natijalari psixologik mohiyati ochib berilgan. Kiberhujumlardan saqlanish va shaxsning o'z-o'ziga munosabatini empirik o'rganish natijalari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar tahlil qilingan. Shaxs himoya mexanizmlarini baholash so'rovnomasining ishonchlilik ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: kiberhujum, o'z-o'ziga munosabat, internet, psixologik himoya mexanizmlari, kiberxafsizlik, shaxs, psixologik xususiyat, korrelyatsion bog'liqlik, destruktiv axborot, faollashayotgan agressiv, internetga tobelik xulqi, kompyuter o'yinlariga.

HUSANOV A.M. РЕЗУЛЬТАТЫ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ЗАЩИТЫ ОТ КИБЕРАТАК И ОТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА К СЕБЕ

В статье раскрыта психологическая сущность результатов эмпирического исследования защиты от кибератак и отношения личности к себе. Были проанализированы корреляционные связи между защитой от кибератак и результатами эмпирического исследования реакции человека на себя. Приведены показатели надежности анкеты оценки механизмов защиты личности.

Ключевые слова: кибератака, отношение к себе, интернет, механизмы психологической защиты, кибербезопасность, личность, психологический признак, корреляционная зависимость, деструктивная информация, активизирующаяся агрессивность, поведение интернет-зависимости, компьютерные игры.

HUSANOV A.M. RESULTS OF THE PREVENTION OF CYBERATTACKS AND THE EMPIRICAL STUDY OF THE SELF-ATTITUDE OF AN INDIVIDUAL

The article reveals the psychological essence of the results of the Prevention of cyberattacks and the empirical study of the self-attitude of an individual. Correlational correlations between cyberbullying avoidance and the results of an empirical study of an individual's self-attitude have been analyzed. Reliability indicators of the personality chemo mechanism Assessment Survey have been cited.

Keywords: cyberbullying, self-attitude, internet, psychological defense mechanisms, cybersecurity, personality, psychological trait, correlational dependence, destructive information, activating aggressive, internet-specific behavior, to computer games.

Kirish. Axborot xavfsizligi deganda, shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasida milliy manfaatlarini turli tahdidlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim. Axborot sohasidagi shaxs manfaatlariga, qonun bilan cheklanmagan, jismoniy, ma'naviy va aqliy faoliyatni rivojlantirishda shaxsiy xavfsizlikning ta'minlanganligi nazarda tutiladi. Axborot sohasidagi jamiyat manfaatlariga esa, shaxs qiziqishlarining qondirilishi, demokratik huquqiy davlat qurish, ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanganligi tushuniladi. Axborot sohasida davlat manfaatlarini inson va fuqaroni axborot olish va undan foydalanish, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni amalga oshirish maqsadida rivojlangan milliy axborot infrastrukturasi yaratish kabilar kiradi.

Mavzuning dolzarbligi. Yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi hamda o'z vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birini guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfi mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi. Internet har qanday shaxsni shunday o'zgartiradiki, inson unga erishish uchun barcha to'siqlarni yengishga tayyor bo'ladi. Misol uchun, o'smir yoki o'spirinlar doim yolg'on gapirish evaziga unga bo'lgan ehtiyojini qondirib boradilar. Hattoki, qarshilikni yengish uchun o'z tajovuzkorliklarini ham kuchli namoyon etib boradilar.

Maqsad. Turli usullar yordamida alohida shaxs, guruh va fuqarolar psixologiyasiga (hayot mazmuni, qadriyatlarini, ijtimoiy yo'naltirilganligi, qiziqish va dunyoqarashlari) ta'sir ko'rsatib, tanlagan yo'lining xatoligi, shubhaliligi, hukumatga ishonchsizlikni vujudga keltirish maqsadida olib boriladigan har qanday harakat destruktiv axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.

Mamlakatimizda mazkur muammo doirasida bir qator ishlar, xususan, V.M.Karimova, U.D.Qodirov, B.M.Umarov, R.S.Samarov, Z.T.Nishonovlarning tadqiqotlarida virtual olamga qaramlikga moyillik, kompyuter

o'yinlariga tobeklikning bola psixik shakllanishiga salbiy ta'siri hamda o'smirlik davrida virtual o'yinlarga tobeklikning psixologik xususiyatlariga oid tadqiqotlar olib borganlar. Rus psixologiyasida ham virtual olamning o'smir shaxsiga psixologik ta'sir masalasida, Soldatova G.U., Rasskazova YE.I., Nestik T.A. internetga tobeklik asosida insonlar tomonidan amalga oshiriladigan jinoiy harakat mazmunini quyidagicha tavsiflaydi: «internetga tobeklik xulqi bu- ruhiy tomondan buzilgan xulq-atvor shakliga tenglashtirilgan faoliyat sanalib, unda inson o'z ehtiyojlarini qondirish istagi bilan emas, balki haqiqiy dunyodan qochish istagi bilan yashaydi. Shuning uchun, sud – huquq tizimida inson ruhiy holatning ahamiyati, uning sog'-salomatligi, patologik buzilishlarga ega yoki ega emasligi alohida e'tiborga olinishi lozim deb ta'kidlaydi»¹.

Maqolaning ilmiy mohiyati. «Internetga tobeklik bu – shiddat bilan o'sayotgan xulq ko'rinishi sanalib, uni o'rganish uchun avvalo, fenomenologik asoslarini aniqlash lozim. Bundan tashqari, muammoni bosqichma-bosqich hal etish hamda uni bartaraf etishda aniq psixologik va psixoterapevtik tavsiyalar ishlab chiqish lozim». Shundan so'ng, bir qator xorij tadqiqotchilari, muammo borasidagi tadqiqotlarining yo'nalishini o'zgartirishga qaror qildilar. Ta'kid joizki, ba'zi tadqiqotchilar internetdan ko'p foydalanish holatini ijobiy holat sifatida e'tirof etib, uni pul topishning eng samarador yo'li deb ta'riflaydilar².

Tadqiqotning ob'yekti. Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridagi umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilari, jami 325 ta sinaluvchi tadqiqotda qatnashgan.

O'smir o'quvchilarda kiberhujumlardan saqlanishning psixologik determinantlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'z-o'ziga munosabatini baholash va kiberxavfsizlikdan himoyalaniшни aniqlashga qaratilgan so'rovnoma shkalalari ya'ni o'zini o'zi ayblash shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga moyillik, ijti-

¹ Солдатова Г.У., Рассказова Е.И., Нестик Т.А. (2017). Цифровое поколение России: компетентность и безопасность. - М.: Смысл. - С. 70.


² Самыгин С.И. и др. Информационная безопасность молодежи в современной России / С.И.Самыгин, А.В.Верещагина, А.В.Кузнецова // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2014. № 11/1. С. 140–144.

1-jadval. Kiberhujumlardan saqlanish va shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholashni o'rganish so'rovnomasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti mezonni bo'yicha).

Shkalalar	Kiberhujumlarga umumiy qaramlik	Virtual olamga qaramlikga moyillik	Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	Televizorga qaramlik	Kompyuter o'yinlariga qaramlik	Internetga qaramlik
O'z-o'zini ayblash	0,446*	0,689**	0,549**	0,637**	0,329	0,479*
O'z-o'zini idora qilish	0,478*	0,295	0,472*	0,563**	0,317	0,462
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	0,480*	0,547**	0,473*	0,459*	0,579**	0,521**
O'z-o'zini qadrlash	0,463*	0,569**	0,591**	0,220	0,438*	0,562*
O'z-o'zini qabul qilish	0,280	0,545**	0,240	0,539**	0,463*	0,541**
Ichki ziddiyat	0,468*	0,482*	0,549**	0,309	0,658**	0,421*
O'z-o'ziga ishonch	0,531*	0,684**	0,260	0,431*	0,539**	0,329

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$.

1-rasm. Shaxs himoya mexanizmlarini baholash so'rovnomasining ishonchlik ko'rsatkichlari.



■ Shkalalarning ishonchlik darajasi

moiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini idora qilish shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'ziga munosabatning aks etishi shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini qadrlash shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'zini qabul qilish shkalasi virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter

o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, ichki ziddiyat shkalasi kiberhujumlarga umumiy qaramlik, virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik va internetga qaramlik shkalalari bilan, o'z-o'ziga ishonch shkalasi virtual olamga qaramlikga umumiy moyillik, televizorga qaramlik, kompyuter o'yinlariga qaramlik shkalalari bilan musbat darajada korrelyatsiyalarni hosil qilgan.

Internetga tobelikning oldini olishning yagona yo'li bu, uni nazorat qiluvchi milliy qo'mitani tashkil etishdir. Ushbu qo'mita, tobelikni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, qonun xujjatlari, profilaktik dasturlar ishlab chiqish kabi ishlarni amalga oshiradi. Ushbu taklifning mohiyati shundaki, virtual tarmoqqa bo'lgan tobelikni

faqatgina fan emas balki, uni nazorat qiluvchi, ma'lumotlarni profilaktika qiluvchi tashkilot ham zarur sanaladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. O'smir o'quvchilarda kiberhujumlardan saqlanishning psixologik determinantlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotimizda foydalangan shaxs himoya mexanizmlari so'rovnomasining qay darajada ishlayotganligini tekshirish uchun Alfa-Kronbax mezonidan ham foydalanildi. Bu statistik mezonga ko'ra, shaxs hayot stili indeksi darajasi ya'ni himoya mexanizmlarini o'lchashga xizmat qiluvchi so'rovnoma yuqori darajada o'zining ishonchli ekanligini ko'rsatgan. Shu jihatdan Plutchik-Kelerman tomonidan ishlab chiqilgan so'rovnoma shkalalarining har birida ishonchlilik darajasi 0,25-1 oralig'idagi standartga mos tushganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan.

Yana shuni aytish lozimki, yoshlarga turli xildagi to'garaklar tashkil qilinsa, shunda ularning bo'sh vaqtlari har qanday yengil-yelpi axborotlar qabul qilishga sarflanmaydi. Shunday qilib, globallashuv sharoitida yoshlarimizning yot g'oyalarga ergashib ketishi, ularga qing'ir ishlarining jiddiy oqibatlari, javobgarligi va huquqiy asoslari haqida mukammal tushunchalar berish, bu borada targ'ibot ishlarini yanada kengroq olib borishimiz lozim.

A.V.Ursu o'zining «kompyuter o'yinlariga tobelik dinamikasi va epidemiologiyasi» mavzusidagi ilmiy maqolasida quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: «aksariyat mazkur xulqqa ega shaxslar deoriyatsiyani boshdan kechirib, hayotiy vaziyatlarda o'zlarini past baholaydilar, tor doirada muloqot qilishni xush ko'radilar, harakatlarida impulsivlik yetishmaydi, maqsad qo'yishdan doim qochib yurish istagi kabilar bilan boshqalardan farqlanadilar. Bunday shaxslar ilgari o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan osongina voz kechadilar. Natijada ularda yolg'izlikdan qo'rqish, tez-tez depressiv holatlarga tushish kuzatiladi. Muallifning nazaricha, internet tobelligi nafaqat hayotga noto'g'ri mo'ljal olish yoki oliy maqsadlarga nisbatan ishtiyoqning so'nishi (impulsivlikning so'nishi) bilan ham tavsiflanadi»¹.

¹ Урсу А.В. Компьютерная игровая зависимость: клиника, динамика и эпидемиология / А.В. Урсу, А.В. Худяков // Психич. здоровье. - 2009. - № 8. - С. 28-32.

Zamonaviy dunyoda jamiyatning texnik va iqtisodiy rivojlanishiga aloqador global o'zgarishlar yangi turdagi xavfning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, uning harakati makon va vaqtdan tashqaridadir. Internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida o'z-o'zini anglashdagi qiyinchiliklar, ishsizlik holati, oilaviy muammolar, o'z daromadidan norozilik, jamoadagi noto'g'ri ijtimoiy munosabatlar kabilar e'tirof etiladi. Boshqacha aytganda, internet olami bu – usti yopiq gumbaz bo'lib, gumbazning ichida muammodagi inson o'zini qulay va xavfsiz his etadilar. Internet - bu gumbazning bir turi, uning ostida odam bor o'zini xavfsiz his qiladi, noqulay tashqi tomondan tortib olinadigan dunyo. Mazkur mulohazaga ko'ra, internet inson uchun virtual tinch makon, muammolar girdobidagi inson u yerdan panoh topadi².

Xulosa. Yuqoridagi tasniflardan shuni xulosa qilish mumkinki, internet tobelligining kelib chiqishi birinchi navbatda, shaxsda ijtimoiy munosabatlarning izdan chiqishi, ijtimoiy muhit, shaxs tarbiyasidagi e'tiborsizlik kabi omillarga ko'proq bog'liqdir. Tobelik obyektiga nisbatan haddan ortiq motivatsiya ya'ni internet tarmog'ida butunlay o'zini ko'rish va internet har qanday shaxsni shunday o'zgartiradiki, inson unga erishish uchun barcha to'siqlarni yengishga tayyor bo'ladi. Misol uchun, o'smir yoki o'spirinlar doim yolg'on gapirish evaziga unga bo'lgan ehtiyojini qondirib boradilar. Hattoki, qarshilikni yengish uchun o'z tajovuzkorliklarini ham kuchli namoyon etib boradilar.

Jamiyatning yagona vazifasi bu - o'sib kelayotgan yoshlarga, maktab talabalariga, talaba yoshlarga yordam berishdir. ya'ni shafqatsiz virtual harakatlardan voz kechib, haqiqiy hayot tarziga o'tishlariga ko'maklashishdir.

Umuman olganda, axborot xavfsizligi tahdidi – axborot tizimi yoki resursining axborot yoki komponentlariga ta'sir qilish orqali egalari va foydalanuvchilari manfaatlariga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazishi mumkin bo'lgan potensial hodisa, jarayon yoki holat deganidir. Lekin, afsuski, nodemokratik rejimlar bu yerga «davlat,

² Бовина И.Б. и др. Как здоровье приходит к детям? Развитие социальных представлений о здоровье у детей и подростков с точки зрения кросс-культурной перспективы (Франция/Россия) / И.Б.Бовина, Н.В.Дворянчиков. Отчет РГНФ, 2017.

jamiyat va fuqaro manfaatlarini» ni ham qoʻshib qoʻyadi.

Internetga tobellikni keltirib chiqaruvchi psixologik sabablar turlicha sanalib ular: maʼlumotlarga doimiy ehtiyoj; yuqori bilim olish motivatsiyasi; yuqori ijtimoiy faollik; vaqtning yetishmasligi kabilar bilan xarakterlanadi. Internet xizmatlaridan tez-tez foydalanish, tarmoqdagi aloqaning soddaligi va qulayligi, u yerda saqlanadigan maʼlumotlarning toʻliqligi va ochiqligi, oʻyin kulgilarining katta katalogi

internetga tobeligining asosiy sabablaridan biri boʻlib, u oʻsmir oʻquvchilarning kasbiy kamoloti rivojlanishiga keng taʼsir qiladi.

Sogʻlom internet foydalanuvchilari onlayn muloqotni, jonli muloqotdan tez ajratib olishadi. Internet ular uchun faqat foydali vositadir xolos. Internetdan patologik foydalanish muammosi psixologiya fanidagi juda yosh mummolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozir hamma sohalar uchun bu holat dolzarb boʻlib bormoqda.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Солдатов Г.У., Рассказова Е.И., Нестик Т.А. (2017). Цифровое поколение России: компетентность и безопасность. М.: Смысл. С.70
2. Самыгин С.И. и др. Информационная безопасность молодежи в современной России / С.И. Самыгин, А.В. Верещагина, А.В. Кузнецова // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2014.№ 11/1. С. 140–144.
3. Урсу А.В. Компьютерная игровая зависимость: клиника, динамика и эпидемиология / А.В. Урсу, А.В. Худяков // Психич. здоровье. - 2009. - № 8. -С. 28-32.
4. Бовина И.Б. и др. Как здоровье приходит к детям? Развитие социальных представлений о здоровье у детей и подростков с точки зрения кросс-культурной перспективы (Франция/Россия) / И.Б.Бовина, Н.В.Дворянчиков. Отчет РГНФ, 2017.
5. Kwan G.C.E. et al. Facebook bullying: An extension of battles in school / G.C.E. Kwan, M.M. Skoric // Computers in human behavior. 2013. Vol. 29. P. 16–25.
6. Kopecky K. et al. The risks of Internet communication / K.Kopecky, R. Szotkowski, V. Krejci // Procedia – Social and Behavioral Sciences. 2012. Vol. 69. P.1348–1357.
7. Психология и педагогика подросткового возраста - [Электронный ресурс]. Режим доступа:<http://murzim.ru/nauka/pedagogika/26496-psihologiya-i-pedagogika-podrostkovogo-vozrasta>.